

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-fevral

## 2019-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

So'nggi yigirma yil mobaynida jahon iqtisodiyotining tarmoqlaridan biri sifatida xizmatlar sohasida jadal o'sish kuzatilmoqda. Bu ishlab chiqarishning murakkabligi, bozorni yangi mahsulotlar bilan to'yinganligi, innovatsion texnologiyalarning jadal o'sishiga bog'liqdir.

Shuningdek, xizmatlar sohasining jadal o'sishi yangi faoliyat turlari va investitsion imkoniyatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda kredit-moliyaviy, axborot, telekommunikatsiya, tibbiy, intellektual va ko'ngilochar xizmatlar bozorlari rivojlanmoqda.

2019-yil 1-mart holatiga ko'ra viloyatimizda 18,5 mingta korxonalar va tashkilotlar xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatmoqda, bu faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida (28,8 ming birlik) 64,3 % ni tashkil etadi. Ularning o'sishi o'tgan yilga nisbatan 13,4 % ni tashkil etdi.


**Ma'lumot uchun:** 2018-yil 1-mart holatida xizmatlar sohasida viloyatda 16,3 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida - 25,5 %, yashash va ovqatlanish sohasida - 4,7 %, tashish va saqlash - 3,7 %, axborot va aloqa - 2,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,0 %, boshqa turlarda - 26,7 % korxonalar va tashkilotlar o'rin egallagan.

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-fevral

2019-yil 1-mart holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibida eng yuqori ulushni savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (26,0 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,7 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ga yetdi.


# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-fevral

## 2019-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Sog'liqni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi 1,9 % ga teng bo'ldi.

**Ma'lumot uchun:** 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2,2 mingtaga ko'paydi.

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-fevral

Eng yuqori o'sish savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar va tashkilotlarda qayd etildi. U 16,3 % ni tashkil qildi, ularning soni 1,1 mingtaga ko'paydi. 2019-yil 1-mart holatiga ko'ra ushbu sohada yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 7,5 mingtaga yetdi.

Tashish va saqlash sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishi (0,2 mingtaga), ularning o'sishiga (21,9 %) ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sishi (14,2 %) kuzatilmoqda, ularning soni 0,2 mingtaga oshdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 226,8 mlrd. so'mga oshib, 1350,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,9 % ni tashkil etdi.




# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-fevral

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari yetakchi o'rinni egallaydi. Ularning ulushi 32,8 % ni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan hajmi 52,3 mlrd. so'mga oshdi.

## 2019-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Bundan tashqari, eng yuqori ulushlar transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish hamda shaxsiy xizmatlarda kuzatiladi.

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-fevral

## 2019-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mird. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>1350,0</b>	<b>110,9</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	72,0	97,8
Moliyaviy xizmatlar	229,6	175,2
Transport xizmatlari	305,1	100,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	298,3	100,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	22,0	106,2
Savdo xizmatlari	442,8	102,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	43,9	106,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	45,0	112,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	20,9	117,7
Ijara xizmatlari	31,0	101,8
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	34,0	102,7
Shaxsiy xizmatlar	62,6	100,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	8,9	144,9
Boshqa xizmatlar	32,2	105,2


# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-fevral

Respublikamizda olib borilayotgan kredit siyosati bo'yicha islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 175,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (144,9 %), sog'liqni saqlash sohasida (117,7 %) ta'lim sohasidagi xizmatlar (112,0 %), transport xizmatlari (100,5 %), qayd etildi.

## 2019-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-fevral

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 442,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 32,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 52,3 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-fevral oylarida uning ulushi 84,2 % ni tashkil etdi.




# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-fevral

## 2019-yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 8,9 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmida 6,9 % ni tashkil etdi.

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-fevral

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2019 yil yanvar-fevral oyida viloyatda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi 5,3 % ni tashkil etib hajmi 72,0 mlrd. so'mga yetdi.

Viloyatda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,8 % ni tashkil etadi.



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi


(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-fevral

2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati 6,2 % ga o'sdi, hajmi esa 3,1 mlrd. so'mga oshdi va 22,0 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 90,9 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 9,1 % ni tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-82-63

71-230-80-64